



O'ZBEK TILIDAGI O'SMIRLAR YOZMA NUTQINI NEYROLINGVISTIK BAHOLASH: UNLDAB DIAGNOSTIK BATAREYASINING NAZARIY MODELII

Dilnavoz Abduraximova

Farg'ona davlat universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.22297204>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 29-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 31-avgust 2026 yil

KEY WORDS

neyrolingvistik diagnostika,
UNLDAB, disgrafiya, grafomotor
blok, yozuv kognitiv modeli, o'zbek
tili.

ABSTRACT

Tezis o'zbek tilidagi o'smirlar (11–16 yosh, 5–9-sinflar) yozma nutqini kompleks baholashga mo'ljallangan UNLDAB neyrolingvistik diagnostik batareyasining nazariy modelini taqdim etadi. Model L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi, N.S. Trubetskoyning fonologik oppozitsiyalar nazariyasi, rus logopedik-neyropsixologik maktabi (R.Ye. Levina, T.A. Fotekova, T.V. Axutina) tajribasi hamda J. Hayes va L. Flowerning yozuv kognitiv modeli sintezida shakllantirilgan.

Yozuv faoliyati zamonaviy ilmiy adabiyotlarda psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrolingvistika va lingvodidaktikaning tutashgan sohasi sifatida o'rganiladi. Yozma nutqning buzilishi — disgrafiya — o'quvchining akademik muvaffaqiyatiga va kommunikativ kompetensiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu bois uning erta va aniq diagnostikasi dolzarb ilmiy-amaliy masaladir. Ammo o'zbek tili uchun yagona, nazariy asoslangan diagnostik tizim hali ishlab chiqilmagan edi.

Yozuvni murakkab belgi faoliyati sifatida tushunish L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga borib taqaladi: yozma nutq og'zaki nutqdan sifat jihatidan farq qiluvchi, ichki nutq bilan uzviy bog'liq mustaqil nutqiy funksiyadir, unda fikr ikkinchi darajali abstraksiyaga ega bo'ladi.¹Fonologik darajaning nazariy asosi fonologik oppozitsiyalar nazariyasi bilan belgilanadi: fonema so'z va morfemalarni farqlashga xizmat qiluvchi eng kichik til birligi bo'lib, uning idroki yozuvning boshlang'ich shartidir.²

Rus logopedik maktabi yozuv buzilishlari genezisida fonematik idrok va tovush tahlilining shakllanmaganligini asosiy omil deb ko'rsatgan;³

neyropsixologik yo'nalishda esa og'zaki nutqni komponentlar — fonematik idrok, artikulyatsiya, lug'at boyligi, grammatik qurilish, bog'langan nutq — bo'yicha baholash tizimi yaratilgan.⁴Yozuvning kognitiv modellari esa jarayonlarning ishchi xotira resurslarini

¹ Выготский Л.С. Мышление и речь: психологические исследования. — М.; Л.: Соцэкгиз, 1934. — 324 с.

² Трубецкой Н.С. Основы фонологии. — М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. — 372 с.

³ Левина Р.Е. Нарушения письма у детей с недоразвитием речи. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. — 312 с.

⁴ Фотекова Т.А., Ахутина Т.В. Диагностика речевых нарушений школьников с использованием нейропсихологических методов. — М.: АРКТИ, 2007.

taqsimlashini ochib beradi: quyi darajadagi ko'nikmalar avtomatlashmaganida yuqori darajadagi rejalashtirish uchun resurs qolmaydi.⁵

Ushbu nazariy qarashlar sintezi asosida UNLDABning neyrolingvistik modeli shakllantirildi. Model yozuv faoliyatini ketma-ket amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiri sifatida tasvirlaydi: tashqi nutq (eshitilgan yoki o'qilgan axborot) → fonologik qabul qilish (idrok) → fonologik kodlash → leksik-semantik va grammatik kodlash → grafemik bufer → motor realizatsiya. Zanjirning har bir bo'g'ini muayyan diagnostik blok bilan o'lchanadi. UNLDAB uch blokli tuzilishga ega. Grafomotor blok (BYBS/BHK — moslashtirilgan qisqa yozuv baholash shkalasi) harf shakllanishi, yozuv ritmi, bosim va motor koordinatsiyani baholaydi;⁶

fonologik yozuv bloki (PWT — phonological writing test) fonema-grafema konversiyasi, tovush tahlili va fonologik ishchi xotirani o'lchaydi; ekspressiv yozuv bloki (SWT — spontaneous writing test) esa mustaqil matn yaratishda leksik-semantik, morfologik-sintaktik va tekstual kompetensiyani diagnostika qiladi. Har bir blok o'z indeksi orqali baholanadi: grafomotor indeks (GI), fonologik indeks (PI) va ekspressiv yozuv indeksi (EWI); ularning integratsiyasi umumiy disgrafiya indeksini (UDI) hosil qiladi. Bunday tuzilish batareyani alohida testlarning mexanik yig'indisi emas, balki bloklararo integratsiyalashgan yagona tizimga aylantiradi.

UNLDAB o'zbek tilining tipologik xususiyatlariga moslashtirilgan: fonologik blokda o'zbek fonem tizimiga xos oppozitsiyalar, morfologik sinovlarda agglutinatativ affiksalar zanjirlari (allomorf tanlash, ko'p qo'shimchali shakllar), ekspressiv blokda esa erkin so'z tartibi va bog'langan nutq mezonlari hisobga olinadi. Baholash biplanar xarakterga ega: miqdoriy plan indekslar va xato chastotasini, sifatiy plan esa xatolarning lingvistik tipologiyasini qamrab oladi. Batareyaning ilmiy ishonchliligi ekspert validizatsiyasi (kontent validligi indeksi) va baholovchilararo kelishuv koeffitsiyenti orqali ta'minlanadi.⁷

Xulosa qilib aytganda, UNLDABning nazariy yangiligi yozuv faoliyatining ichki mexanizmlarini bevosita o'lchashga imkon beruvchi, o'zbek tiliga moslashtirilgan biplanar baholash tizimini yaratganligidadir. Kelgusi ishlar batareyaning normativ empirik asoslarini kengaytirish, uni raqamli platformaga o'tkazish va avtomatlashtirilgan skrining tizimlarini yaratish bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь: психологические исследования. — М.; Л.: Соцэкгиз, 1934. — 324 с.
2. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. — М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. — 372 с.
3. Левина Р.Е. Нарушения письма у детей с недоразвитием речи. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. — 312 с.
4. Фотекова Т.А., Ахутина Т.В. Диагностика речевых нарушений школьников с использованием нейропсихологических методов: пособие для логопедов и психологов. — М.: АРКТИ, 2007.

⁵ Хейс Дж.Р., Флауэр Л.С. Identifying the Organization of Writing Processes // Cognitive Processes in Writing. — Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1980.

⁶ Хамстра-Блетц Л., Блётте А.В. Development of Handwriting in Primary School: A Longitudinal Study // Perceptual and Motor Skills. — 1990. — Vol. 70, № 3. — P. 759–770.

⁷ Линн М.Р. Determination and Quantification of Content Validity // Nursing Research. — 1986. — Vol. 35, № 6. — P. 382–385.

5. Ахутина Т.В., Пылаева Н.М. Преодоление трудностей учения: нейропсихологический подход. — М.: Изд. центр «Академия», 2008. — 319 с.
6. Хейс Дж.Р., Флауэр Л.С. Identifying the Organization of Writing Processes // Cognitive Processes in Writing / ed. by L.W. Gregg, E.R. Steinberg. — Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1980.
7. Хамстра-Блетц Л., Блёте А.В. Development of Handwriting in Primary School: A Longitudinal Study // Perceptual and Motor Skills. — 1990. — Vol. 70, № 3. — P. 759–770.
8. Линн М.Р. Determination and Quantification of Content Validity // Nursing Research. — 1986. — Vol. 35, № 6. — P. 382–385.

